

## 5-mavzu: [o] tovushi. Oo harfi

### Dars maqsadi:

- [o] tovushining talaffuzi va Oo harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [o] unli tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [o] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** gap, so'z, bo`g`in, [o] tovushi, so`zdagi tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi kartochkalar, "Oltin tarvuz" audio ertak

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

##### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Diqqat mashqi: O'qituvchi ma'lum bir ketma - ketlikni hosil qilib chapak chaladi. Avval 2 ta chapak, so'ng 3 ta chapak, keyin 4 ta chapak. O'quvchilar avval eshitadilar so`ng o'qituvchi qanday chalgan bo'lsa shunday qaytarib chaladilar.

*- Bugun siz bilan "Diqqat" mashqini o'tkazamiz. Men chapak chalaman siz esa diqqat bilan eshitasiz, keyin huddi mendek qilib qaytarib chapak chalib berasiz.*

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

**O`qituvchi doskaga olma, olmaxon, oy rasmini qo`yadi. O`quvchilardan bu rasmlarni qanday xususiyati bir xil deb so`raydi.**

*Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni qanday xususiyati bir xil ekanligini toping.*

##### Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmlarni qanday so`zlar bilan ifodaladingiz?*
- *Qanday xususiyatlari bir xil deb topdingiz?*

- Yana shunday xususiyatli so'zlarga misol keltira olasizmi?

**Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi**

## 2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [o] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi.Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytiladi.

**Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.**

**O'qituvchi uchun eslatma:**

5-dars [o] tovushi. O o harfi

[o] tovushi – unli tovush. Lablar biroz oldinga cho'zilib, og'iz keng ochilgan holda talaffuz qilinadi: "O-o-o".

Yer sharidek yumaloq Chirolyi shaklimga boq. Olma, olcha, öxo'ri, G'ildirakdek dumaloq.

Professor Ekodost

1

14

2

15

5-dars [o] tovushi. O o harfi

Barmog'ingiz qo'yib chizmaga, Rasmilarni toping – tez, birga!

Yong'oq chaqib olmaxon, Pishirdi yong'oqli non.

Rasmdagi barcha O harfiga o'xshash narsalarni toping.


O tovushini talaffuzida quyidagi holat yuz beradi: Lablar aylana shaklida(dumaloqlangan) va bir oz oldinga chiqadi, tishlar dumaloqlangan lablar bilan bekiladi, til ildizi bir oz yuqoriga ko'tariladi, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib turadi, havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tib ketadi, tovush boyamlari bog'langan bo'lib, tebranadi va tovush hosil bo'ladi.

**O o** harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o'qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

**Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadilar.**

- *She'r nima haqida?*
- *Unda qaysi so'zlarda [o] tovushi ishtirok etadi?*

*O o harfi nimaning shakllariga o'xshatilyapti?*



**Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi tushuntiriladi (O) tovushining o'rni aniqlanadi.**

Oy – ikkita tovush 1-tovush [o] unli tovush qizil rangda.

Olov- so'zida 2 ta [o] unli tovushi borligi aytiladi va ularning o'rni aniqlanadi. Qolgan so'zlar ham shu tariqa tahlil qilinadi.

**Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi moslashtiriladi.**



- Ot – ikkita tovush 1-tovush [o] unli tovush qizil rangda, 2-tovush [t] undosh tovushi ko'k rangda
- **Daftар bilan ishlsh: (10 daqiqa)**

- Oo harfini qizil rangga bo'yaydilar
- Olmaxon so'zining chizmasida o harfining o'rnini topib kataklarni bo'yaydilar.

Berilgan namunadan bosma O o harfining bosh va kichik ko'inishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozadilar.

### **Darslik bilan ishlash: (3 daqiqa)**

*1. She'rni o'qing. So'zlardan [o]tovushini toping.*

*4. Rasmga diqqat bilan qarang narsalar orasidan Oo harf shakliga o'xshashlarini aniqlang.*

### **Tinglab tushunish ; (7 daqiqa).**

"Oltin tarvuz" audio ertagi tinglanadi. Ertak mazmuni so'raladi.

### **Daftар bilan ishlsh: (3 daqiqa)**

*1. O o harf shakliga o'xshash narsa rasmini chizing.*

### **Darsga yakun yasash:**

*- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

*- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

## **6-mavzu: [t] tovushi. Tt harfi**

### **Dars maqsadi:**

- [t] tovushining talaffuzi va Tt harfining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [t] undosh tovush ekanligini bilib oladilar;
- so'zlardan [t] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** omonim so'zlar, ochiq va yopiq bo`g`in, [t ] tovushi,

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar, Toshkent shahri rasmlari

### **Darsning borishi:**

#### **I.Kirish qismi (5 daqiqa)**

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

#### **Faollashtirish mashqi:**